Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития .....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati .....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish .....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilqatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах .....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities ....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
Kolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishing asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choraları .....	1181
Xamraulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamayusupov	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



# EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA MAVSUMIYLIKNING TURISTIK MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISHGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH USULLARI

Xamzayeva Dilfuza Samarovna

Termiz davlat universiteti Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada turizm faoliyatini rivojlantirish, bu borada turistik mahsulotlar taklifini mavsumiylashtirish masalalari, xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari qiyosiy tahlil qilindi. Ekonometrik modellasshtirish asosida mavsumiylikning turistik mahsulotlar ishlab chiqarishga ta'sirini kamaytirish usullari tahlil qilindi, mavjud muammolar ochib berildi va ilmiy asoslangan takliflar berildi.

**Kalit so'zlar:** Turizm, davlat, mavsumiylashtirish, tur mahsulotlari, tadbirkorlik, mexanizm, turistik xizmatlar bozori, ekonometrik modellasshtirish, daromad.

**Abstract:** In the article, the development of tourism activities, the issues of seasonalization of the offer of tourist products in this regard, the views of foreign and local scientists were comparatively analyzed. On the basis of econometric modeling, methods of reducing the effect of seasonality on the production of tourist products were analyzed, existing problems were revealed and scientifically based proposals were given.

**Key words:** Tourism, state, seasonalization, tour products, entrepreneurship, mechanism, tourist services market, econometric modeling, income.

**Аннотация:** В статье сравнительно проанализированы развитие туристической деятельности, вопросы сезонности предложения туристических продуктов в этой связи, мнения зарубежных и отечественных ученых. На основе эконометрического моделирования проанализированы методы снижения влияния сезонности на производство туристского продукта, выявлены существующие проблемы и даны научно обоснованные предложения.

**Ключевые слова:** Туризм, государство, сезонность, турпродукт, предпринимательство, механизм, рынок туристических услуг, эконометрическое моделирование, доход.

## KIRISH

Globallashuv davrininng so'nggi yillarda turizm sohasi dinamik taraqqiyotga sezilarli ijobjiy ta'sir ko'rsatsada, bir vaqtning o'zida, bu sektorda bir qator tizimli muammolar ham yuzaga kelmoqda. Bu keskin o'sib borayotgan talab sharoitida, turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash hamda mavsumiylik omilidan yanada samarali foydalananish imkoniyatlarini izlab topish masalalarini dolzarblashtirmoqda. Bu o'z navbatida, turizm xizmatlari bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining me'yoriy-huquqiy, institutsional, infratuzilmaviy va boshqa jihatlarini chuqur isloh qilish vazifasini oldinga olib chiqadi.

Shuni ta'kidlash kerak-ki, agar dunyo buylab harakatlanishga ta'sir qiluvchi yangi pandemiya va global mojarolar bo'lmasa, turizm sohasi keyingi 10 yil ichida barqaror o'sishda davom etadi.

Prognozlarga ko'ra, 2033-yilga kelib turizm sektori jahon YIMga qo'shgan hissasini 15,5 trln.dollargacha yetkazadi, bu jahon iqtisodiyotining 11,6 foizini tashkil etadi va butun dunyo bo'ylab 430 million kishini ish bilan ta'minlaydi, 10 yil ichida mehnatga layoqatli aholining deyarli 12 foizi turizm sohasida ishlaydi [1].

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'molchilar tomonidan talab qilinadigan turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish turizm sohasini rivojlantirishning dolzarb vazifasidir. Xizmat ko'rsatish sifatining pastligi, shu jumladan, professional kadrlarning yetishmasligi va kasblarning obro'si pastligi mamlakat turizmnинг ichki va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri bo'lib, ayniqsa, ular turistik xizmatlarning yuqori sifatini ta'minlashning dolzarb masalalari hisoblanadi. Turistik mahsulotning sifati va xavfsizligini oshirish vazifasi uni ishlab chiqarish jarayonining barcha ishtirokchilarining birqalikdagi sa'y-harakatlari bilan hal qilinishi kerak.



Bugungi kunda respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini ishlab chiqish, xususan, turizm sohasini rivojlantirishda jahonda yuz berayotgan siyosiy va iqtisodiy voqealar oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olgan holda, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtayi nazaridan shakllantirish va ularni izchil amalga oshirishni taqozo etmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Turizmda mavsumiylik tushunchasi turizmnинг ajralmas qismi bo'lib, u birinchi navbatda turizm xizmatlari hajmiga ta'sir qiluvchi salbiy yoki ijobjiy natijalarini keltirib chiqaradi. Ta'kidlash o'rinni, 1970-yillardan boshlab, ommaviy turizm jadal taraqqiy eta boshlagandan so'ng, mavsumiylik muammosini hal etish dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Dastlabki ilmiy tahlillardan biri 1975-yilda R. R. Baron tomonidan e'lon qilingan ilmiy tadqiqotda o'z aksini topdi. Bu fikrlar "Turizmda mavsumiylik: mavsumiylikni tahlil qilish bo'yicha qo'llanma" nomli tadqiqotida ilgari surildi. Uning ta'rifiga ko'ra: "turizmda mavsumiylik – yil ichidagi tizimli harakat bo'lib, mavsumiylikning xususiyatlardan biri uning muntazamligi, bu nomutanosiblik esa har yili bir xil vaqt va kattalikda sodir bo'ladi" [2].

MDH mamlakatlari olimlaridan mazkur yo'nalishlar samarali tadqiqotlar muallifi hisoblangan U. Sharafanova-vanening fikricha, "turizmdagi mavsumiylik turistik faoliyatning turg'un (yildan yilga), ma'lum bir joy uchun xos bo'lgan va dam olish sharoitlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan takrorlanuvchi davriy tabiat" deya ta'riflaydi [3].

M. M. Ramadonova va M. A. Makorchenkolarning fikricha, "Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning birinchi navbatdagi vazifalari – bu turizmni huquqiy tartibga solishning kelgusidagi takomillashtirilishi, rivojlanishi va mavsumiylashtirilishi bilan bevosita bog'liq, deb hisoblaydi.

Turistik mahsulotlar taklifini mavsumiylashtirish, bozor mexanizmi shakllanishining qulay shart-sharoitlarini ta'minlash, davlatning muhim ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarini realizatsiya qilish va turizm rivojlanishining umumiy konsepsiyasini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi" [4].

K. A. Lebedevaning fikricha, "turistik mahsulotlar taklifini masumiylashtirish davlat siyosatining tarkibiy qismi bo'lishi kerak chunki davlat turistik manzillarni yaratishda bevosita ishtirokchi hisoblanadi va ushbu sohani muvofiqlashtirish bo'yicha mexanizmlar tizimini o'z ichiga oladi", deya ta'riflaydi [5]. Demak, K. A. Lebedeva mavsumiylashtirishda davlatning ham roli ahamiyatli ekanligini ta'kidlaydi.

M. T. Alimovaning fikricha, hududiy turizm bozori rivojlanishida turistik mahsulotlarning taklifini mavsumiylashtirish, turistik mahsulotlar bozorining mo'tadil ishlashini ta'minlash, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan konsepsiyanı ishlab chiqishda ko'maklashish, turistik mahsulotlar bozori subyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlash uchun xizmat qiladi [6].

B. B. Xoshimovning ilmiy izlanishlarida "Turistik xizmatlar bozorida turistik mahsulotlar taklifini mavsumiylashtirish mamlakat hududiy salohiyatidan samarali foydalanishga zamin yaratadi, chunki dastlab turizm sohasida tadqiqotlar nafaqat talabni o'rganish va uning potensial mijozlarini aniqlashga, balki talabni o'zi hisobga olgan holda shakllantirishga ham qaratilgan" [7] deb ta'kidlaydi.

A. A. Qayumov, D. A. Gafurovalarining fikriga ko'ra "O'zbekistonda dam olish maskanlari, davolanishni ta'minlovchi markazlar, kurort maskanlar, ma'daniy va ma'rifiy tadbirlar tashkil etish, tur firmalarning faoliyatini marketing strategiyalari orqali reklama qilish turistik mahsulotlar taklifini mavsumiylashtirishning asosiy asosi bo'lib xizmat qiladi" [8] deb aytib o'tgan. Rostdan ham mavsumiylashtirish uchun turistlarni jalb eta oladigan maskanlarni yaratish lozim.

Ilmiy izlanishlar natijasida aytish mumkinki, turistik mahsulotlar taklifini mavsumiylashtirish avvalo, davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi va yangi maskanlarni ochilishi bilan bog'liq, bu borada tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hududda istiqomat qiladigan fuqarolardan o'z hududi jozibadorligini oshirishda ko'maklashishi talab etiladi. Ana o'shandagina turistik mahsulotlar taklifi mavsumiylashtirish eng yuqori darajada amalga oshiriladi [9].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida turistik mahsulotlar taklifini mavsumiylashtirish, uning infratuzilmasini rivojlantirish, turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining maqsadi, vazifalari va yo'nalishlarini yoritish jarayonida sohadagi transformatsiya jarayonlarini hisobga olish, turizm sohasida davlatning rolini metodologik o'rganish, bu borada mutaxassislar fikrini o'rganish natijasida dialektik va tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik yondashuv hamda guruhash usullaridan foydalanildi hamda infratuzilmaning tarkibiy qismlari rivojlanish yo'nalishlarini belgilab berish yondashuvi asoslandi. Mavsumiylashtirish bo'yicha muammolarning yechimiga qiyosiy tahlil usulidan foydalangan holda ilmiy asoslangan takliflar berildi. Obyekt sifatida turistik mahsulotlari taklifi misol qilib olindi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Turizmni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari qabul qilinmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Lekin shunga qaramasdan shunday omillar borki, ularning o'zgarishi turizm sohasida bir qator o'zgarishlarga olib keladi. Jumladan, 2019-yilda boshlangan pandemiya natijasida O'zbekiston Respublikasi turizm sohasida ham bir qator salbiy holatlarga olib keldi. Jumladan, bu mamlakatimizga xorijiy turistlar oqimining keskin kamayishiga, turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi ayrim korxonalarining foydasining qisqarishiga va ayrim hollarda yopilishiga, mehmonxona biznesi rivojlanishining sekinlashuviga olib keldi.

Ushbu omillar albatta, vaqtincha bo'lib, 2021–2022-yillarda mamlakatimizga xorijiy turistlarning oqimi yana jadallasha boshladi. Deyarli dunyoning barcha mamlakatlaridan turistlar O'zbekistonga tashrif qilishni boshlab yuborishdi. Lekin bularga qaramasdan, yana bir qator omillar borki, ularni tartibga solish murakkab masala bo'lib, respublikamizda turizm rivojlanishiga ma'lum ma'noda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, bunday omillar guruhiba mavsumiylik omili kiradi va u O'zbekistonda turistik mahsulotlar ishlab chiqarishga o'z ta'sirini o'tkazib keladi.

Ushbu omilning respublikamizda turistik mahsulotni ishlab chiqarishga ta'sirini o'rganishda ekonometrik usullardan foydalanan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqotimizda qo'yiladigan ishchi gipoteza quydagi shakllantirildi: Mavsumiylik omili turistik mahsulotlarini ishlab chiqishda salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu gipotezani tadqiq qilish uchun avvalo, O'zbekiston Respublikasida turizm rivojlanishi ko'rsatkichlari tanlashimiz va mavsumiylik omilini hisoblashimiz zarur.

O'zbekistonda turizm rivojlanish faoliyati ko'rsatkichlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik model tuzish uchun quydagi omillar tanlab olindi (2000-2022-yillar bo'yicha ma'lumotlar): natijaviy ko'rsatkich – turistik faoliyatdan olingan daromad, mlrd. so'm – ( $Y$ ), ta'sir etuvchi omillar – tashrif buyurgan turistlar, ming kishi hisobida – ( $X_1$ ), turistik xizmatlar eksporti, mln. AQSh doll. hisobida – ( $X_2$ ), turistik faoliyat olib borayotgan firma va tashkilotlar soni, birlik – ( $X_3$ ), mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni – ( $X_4$ ), turizm sanoatiga jalb qilingan investitsiyalar mlrd. so'm – ( $X_5$ ) va mavsumiylik ko'rsatkichi – ( $X_6$ ).

Turizm faoliyati bo'yicha tadqiq qilinayotgan o'zgaruvchilarining o'Ichov birligi turlicha bo'lganligi uchun hamda ko'p omillik ekonometrik modelning interpretatsiyasini yaxshiroq tushuntirish uchun barcha omillar qiyamatlarini logariflaymiz.

Respublikamizda turizm faoliyati bo'yicha ko'p omilli ekonometrik model tuzishda oldin omillar bo'yicha tavsifiy statistika o'tkazamiz. Tavsifiy statistika natijalari quydagi 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval:** Omillar bo'yicha tavsifiy statistika

	InY	InX <sub>1</sub>	InX <sub>2</sub>	InX <sub>3</sub>	InX <sub>4</sub>	InX <sub>5</sub>	InX <sub>6</sub>
Mean	4.832101	7.187931	4.796947	5.845297	6.027963	2.921470	47.59091
Median	4.786547	7.004730	4.922225	5.792939	6.030581	3.071825	49.50000
Maximum	6.860873	8.817001	7.180070	7.054450	7.080026	3.985273	67.00000
Minimum	3.165475	6.507576	3.072693	4.927254	5.375278	0.875469	7.000000
Std. Dev.	1.216033	0.683359	1.343790	0.613214	0.571798	0.849127	16.12056
Skewness	0.172291	0.899210	0.298751	0.404960	0.445560	-0.886339	-1.002415
Kurtosis	1.678359	2.906357	1.906496	2.548709	1.834031	3.278479	3.457442
Jarque-Bera	1.710015	2.972826	1.423362	0.787999	1.974115	2.951611	3.876212
Probability	0.425280	0.226183	0.490818	0.674354	0.372672	0.228595	0.143976
Sum	106.3062	158.1345	105.5328	128.5965	132.6152	64.27234	1047.000
Sum Sq. Dev.	31.05346	9.806566	37.92120	7.896670	6.866021	15.14135	5457.318
Observations	22	22	22	22	22	22	22


Jadval ma'lumotlaridan har bir omilning o'rtacha qiymati (mean), medianasi (median), maksimal va minimal qiymatlari (maximum, minimum) qiymatlarini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, har bir omilning standart chetlanishi (std. dev. (Standart Deviation) – standart chetlanish koeffitsiyenti har bir o'zgaruvchilarining o'rtacha qiymatdan qanchalik chetlanganligini ko'rsatadi) qiymatlari keltirilgan.



Skewness – asimmetriya koeffitsiyenti bo'lib, u nolga teng bo'lsa normal taqsimot ekanligi hamda taqsimotning simmetrikligini bildiradi. Agar bu koeffitsiyent 0 dan ancha farq qilsa, u holda taqsimot asimmetrik hisoblanadi (ya'ni simmetrik emas). Agar asimmetriya koeffitsiyenti 0 dan katta, ya'ni musbat bo'lsa, u holda o'rganilayotgan omil bo'yicha normal taqsimot grafigi o'ng tomonga surilgan bo'ladi. 0 dan kichik, ya'ni manfiy bo'lsa, u o'rganilayotgan omil bo'yicha normal taqsimot grafigi chap tomonga surilgan bo'ladi. Barcha omillarning taqsimot funksiyalari grafiklari quyidagi 1-rasmida keltirilgan.

Normal taqsimot funksiyasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$p(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}\sigma} \cdot e^{\frac{-(x-\mu)^2}{2\sigma^2}}, -\infty < x < \infty \quad (1)$$



**1-rasm:** Omillarning taqsimot funkiyalari grafiklari

1-rasmdagi grafiklardan shuni ko'rish mumkinki, barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo'ysunar ekan. Ayrim omillarning ekstess koeffitsiyenti 3 dan katta bo'lgani uchun normal taqsimotning nazariy grafigidan uchqirroq bo'lgan ( $\ln X_5$  va  $\ln X_6$ ).

Hisoblangan  $\ln Y$ ,  $\ln X_1$ ,  $\ln X_2$ ,  $\ln X_3$  va  $\ln X_4$  omillarning asimetriya koeffitsiyentlari musbat bo'lganligi sababli ular grafiklarining o'ng "dumi" nazariy normal taqsimot grafiklaridan o'ngga surilgan. Faqat  $\ln X_5$  va  $\ln X_6$  omillarning asimetriya koeffitsiyentlari manfiy bo'lganligi uchun, mazkur omillarning taqsimot funksiyasi grafiklarining chap "do'mi" nazariy normal taqsimot grafiklaridan chapga surilgan.

Mazkur surilishlar asosan o'rganilayotgan omillarni dinamikasidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi. Ayrim yillarda ba'zi omillar keskin ortishga ega bo'lgan bo'lsa, ayrimlarida o'zgarishlar sezilarli darajada bo'lmagan. Umuman olgandan o'rganilayotgan barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo'ysunar ekan.

O'zbekiston Respublikasida turizm rivojlanishi ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish uchun modelga kiruvchi omillarni tanlashda korrelyatsion tahlil o'tkaziladi. Buning uchun omillar o'rtaida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida turistik faoliyatdan olingan daromad ( $\ln Y$ ) hamda unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning analitik ko'rinishda ifodailaymiz:

$$\begin{aligned} \hat{Y} = & -4,2049 + 0,3232 \ln X_1 + 0,2428 \ln X_2 + 0,2347 \ln X_3 + 1,0469 \ln X_4 + \\ & + 0,2773 \ln X_5 - 0,0042 \ln X_6 \end{aligned}, \quad (1)$$



O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlar asosida hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model (1) shuni ko'rsatadi, tashrif buyurgan turistlar soni ( $\ln X_1$ ) o'rtacha bir foizga ortsas, respublikada turistik faoliyatdan olinadigan daromad hajmi ( $\ln Y$ ) o'rtacha 0,3232 foizga ortar ekan. Respublikada turistik xizmatlar eksporti ( $\ln X_2$ ) o'rtacha bir foizga oshsa, respublikada turistik faoliyatdan olinadigan daromad hajmi ( $\ln Y$ ) o'rtacha 0,2428 foizga ortar ekan. Respublikada turistik faoliyat olib borayotgan firma va tashkilotlar soni ( $\ln X_3$ ) o'rtacha bir foizga oshsa, respublikada turistik faoliyatdan olinadigan daromad hajmi ( $\ln Y$ ) o'rtacha 0,2347 foizga ortar ekan. Respublikada mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni ( $\ln X_4$ ) o'rtacha bir foizga oshsa, respublikada turistik faoliyatdan olinadigan daromad hajmi ( $\ln Y$ ) o'rtacha 1,0469 foizga ortar ekan. Respublikada turizm sanoatiga jalb qilingan investitsiyalar ( $\ln X_5$ ) o'rtacha bir foizga oshsa, respublikada turistik faoliyatdan olinadigan daromad hajmi ( $\ln Y$ ) o'rtacha 0,2773 foizga ortar ekan. Va nihoyat, turizm sohasida mavsumiylik ko'rsatkichi ( $\ln X_6$ ) o'rtacha bir foizga ortishi, respublikada turistik faoliyatdan olinadigan daromad hajmini ( $\ln Y$ ) o'rtacha 0,0042 foizga kamayishiga olib kelar ekan.

Ushbu omillarning grafiklari quyidagicha (2-rasm).



**2-rasm:** O'zbekistonda turizmdan olingen daromad hajmining 2000-2022-yillardagi dinamikasi va 2023-2030-yillarga prognoz qiymatlari, mlrd. so'm

Yuqorida rasm ma'lumotlaridan shuni aniq ko'rish mumkinki, O'zbekistonda turizmdan olingen daromad hajmi 2000-yildan toki 2005-yilgacha umuman daromad tushumi bo'lmagan, 2006-yildan boshlab toki 2009-yilgacha daromad hajmi 954,2 mlrd.so'mgacha o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Covid-19 pandemiyasi natijasida respublikamizda 2020-yilda turizmdan olingen daromad hajmining keskin tushish kuzatilgan, olib borilgan chora-tadbirlar natijasida 2021-yilda daromad hajmining yana oshishini ko'rishimiz mumkin. Ishlab chiqilgan prognoz ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, O'zbekistonda turizmdan olingen daromad hajmining dinamikasi 2000–2021-yillarda va 2022–2030-yillar uchun rivojlanish dinamikasini taqqoslaganimizda bashorat ko'rsatkichlari tendensiyasi yuqori ko'rsatkichlarni, ya'ni 2025-yilda 2021-yilga nisbatan 1814,2 mlrd.so'mga yoki 219 foiz o'sish mumkinligini, 2030-yilda esa 2021-yilga nisbatan 4537,9 mlrd.so'mga, 550 foiz o'sish mumkinligini ko'ramiz. Bu o'z navbatida respublika budget daromadlari salohiyatining oshishi va bu orqali respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi maqsadlarida turizm sohasini rivojlanishini kuzatishimiz mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Turistik firmalarning bozordagi raqobatbardoshligi mijozlarning ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, faoliyatining moliyaviy natijalari turistik kompaniyalari uchun to'g'ri tanlangan diversifikatsiya strategiyasiga bog'liq. Shu sababli, turistik mahsulotlarni mavsumiylashtirishning shart-sharoitlari turistik xizmatlarni diversifikatsiyalashga bevosita bog'liq. Boshqacha aytganda, turistik mahsulotlar tarkibini diversifikatsiyalash orqali mavsumiylik natijasida yuzaga keladigan noqulayliklar ta'sirida yo'qotilishi mumkin bo'lgan foyda hajmini saqlab qolish yoki kutilayotgan zarar miqdorini kamaytirishga erishish mumkin. Shu sababli, mavsumiylik bilan bog'liq eng muhim strategiyalaridan biri – bu turistik mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiya qilinishi shart. Turizm xizmatlarini diversifikatsiyalashning obyektiv zarurati asosan mavsumiylik tebranuvchi tendensiyalardan iborat bo'lganligi sababli, bu omildan oqilona va samarali foydalanishga bo'lgan obyektiv talabdan kelib chiqadi. Turizmning mavsumiyligi ko'pincha nazorat qilib bo'lmaydigan holatdir, uning ta'siri turizmnинг o'sishi bilan parallel ravishda kuchayadi, boshqa tomondan, mavsumiylik "mavsumiy yo'qotish" deb ataladigan qiymat yo'qotilishini



ham yuzaga keltiradi. Agar turizm xizmatlari lozim darajada diversifikatsiyalashtirilmasa, u holda, mavsumiy biznes operatsiyalarining ta'siri vaqt o'tishi bilan turizm resurslaridan foydalanishning notebris taqsimlanishiga, shuningdek, resurslardan samarasiz foydalanish, potensial foydani yo'qotish, ijtimoiy va ekologik imkoniyatlarga bosimga hamda ma'muriy boshqaruvdagи tizimli qiyinchiliklariga olib keladi. Yuqoridaqilarni hisobga olgan holda olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida respublikamizda turistik mahsulotlar ishlab chiqarishga mavsumiylikning ta'sirini ekonometrik modellashtirildi va prognozlash ishlarini amalga oshirishimiz natijasi ko'rsatishicha yaqin (2-5-yil) yillarda davomida rivojlanish barqaror tendensiyaga erishadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Мировой туризм в 2023 году восстановится на 95%. Этому помогут китайские туристы.<https://www.atorus.ru/node/52405>.режим доступа: 05.05.2023.
2. Bar-On, Raphael Raymond V. 1975. Seasonality in tourism: A guide to the analysis of seasonality and trends for policy making. London: Economist Intelligence Unit Ltd.
3. Шарафанова Е. Е. Стратегическое планирование развития туристских организаций и гостиничных комплексов: монография / Е. Е. Шарафанова; научный редактор И. Н. Гаврильчак; Санкт-Петербургский государственный университет сервиса и экономики. –СПб., 2015. –180 с. Қаранг: Джанджугазова Е. А. Маркетинг в индустрии гостеприимства: Учеб. пособие. 2-е издание – М.: Академия, 2016. –250 с.
4. Рамадонова М. М., Макарченко М. А. Государственное регулирование туристической деятельности //Альманах научных работ молодых ученых университета ИТМО. –2016. – С. 211-213.
5. Лебедев К. А. Совершенствование государственного регулирования в сфере туризма //Стратегия устойчивого развития регионов России. –2014. – №. 24. –С. 139-141.
6. Alimova M. T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I. f.d. diss. –Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.
7. B. B. Xashimov "Turizm sohasini rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalar Academic Research In Educational Sciences Volume 2 | ISSUE 5 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
8. A. A. Qayumov, D. A. Gafurova "O'zbekistonda turizm va rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanish – REspublika iqtisodiyotini yuksaltiruvchi muhim omil". IQTISOD VA MOLIYA / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2014, 10 б.
9. Xamzayeva D. S. Turistik mahsulotlar taklifini mavsumiylashtirishni takomillashtirish yo'llari va istiqbollari// Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 3-son. Т. 23. – №. 3. –S. 337-341.
10. Новичков В. И., Полозков М. Ю. Анализ опыта государственного регулирования туризма в развитых странах // Journal of new economy. –2008. – №. 3 (22). –С. 46-49.8.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

